

COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES**Author: Eshpulatova Fazilat Farhod qizi**

Student of Termez State Pedagogical Institute

Email; @jujuyevadudush@gmail.com

Scientific Supervisor: Nurmatov Bobur Botirovich

Tel number: (998)-88-043-11-03

Annotation:

This article compares the differences and similarities between phraseological units in Uzbek and Russian. Uzbek translations of Russian phrases are provided. A good understanding of this will allow speakers of both languages to understand each other more easily and reduce ambiguity in communication.

Keywords

Pragmatics, idioms, nation, identity, expressiveness, figurativeness, expressivity

Tilning lug'at tarkibida faqat so'zlar emas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi. [Mamurova Sh. 2024. 1/180] Turg'un birikmalarni erkin birikmalarga qaraganda tarjima qilish ancha mushkulroq, chunki turg'un birikmani nutqda qo'llayotganda o'z va ko'chma obrazli turlarini farqlab olish kerak. [Norbo'tayeva Sh. 2025. 4/1091]

Odatda iboralar ma'nosi bir so'zga teng keladigan gaplar, yoki so'z birikmalar hisoblanadi. Ko'p hollarda xalqning tarixi, urf-odatlar, tabiat bilan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Ularning barchasi ekspressivlikka va obrazlilikka ega bo'lib, oddiy so'z yoki gaplarga qaraganda ifodalilik jihatidan ustun bo'ladi va hissiy ta'sirni kuchaytiradi.

Masalan: **“o'ta”** so'zidan ko'ra **“uchiga chiqqan”**, **“ahmoq”** so'zidan ko'ra **“tomi ketgan”** iborasini qo'llash orqali tinglovchining ongida obraz paydo qila olish mumkin, Bu esa frazeologizmlarning obrazli ifodalilik darajasini oshirib, voqealarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Iboralar tarixiy kelib chiqishga ega bo'lgan turg'un birikma sanaladi. Frazeologizmlar har bir mintaqaning geografik sharoiti, tarixiy tajribasi, xo'jalik faoliyati va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli turli hududlarda bir xil mazmunni ifodalovchi iboralar mavjud bo'lsa-da, ularning obrazlari va til materiallari sezilarli darajada farqlanadi. Bu jarayon tilning ichki tizimi bilan emas, balki xalqning kundalik hayoti va mentaliteti bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, turli mintaqalarda bir ma'noni anglatuvchi iboralarning bir-biriga o'xshamagan shakllari mavjud.

O'zbek va rus tillarida ham shunday iboralar mavjud va to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinganda ikki millat vakillariga birdek tushunarli bo'lmaydi.

Masalan, qishloq xo'jaligiga tayangan o'zbek mintaqasida hosil, dehqonchilik, non, suv, issiq iqlim bilan bog'liq obrazlar asosida frazeologizmlar vujudga kelgan: **“ter to'kish”**, **“nonni ushog'ini ham e'zozlamoq”**, **“bir yoqadan bosh chiqarmoq”** va boshqalar. Rus tilida esa shimol iqlimi va o'rmon-ekologik muhit bilan bog'liq obrazlar ko'p uchraydi: **“как снег на голову”** (to'satdan), **“выйти сухим из воды”**, **“мороз по коже”**, **“как белка в колесе”** va boshqalar.

Белыми нитками сшито –bu ibora to'g'ridan to'g'ri “oq ip bilan tikilgan” kabi tarjima qilinsa-da, ma'no jihatdan nimanidir yashirib, boshqa tomondan oshkor qilib qo'yish kabi tushuniladi, ya'ni yirtiqni yashirishga urinib tikilgan, ammo oq ip baribir u yerda yirtiq borligini bildirib qo'yadi.

Bu ibora o'zbek tilidagi **“kasalini yashirsang isitmasi oshkor qiladi”** iborasiga to'g'ri keladi.

Водой не разольешь – bu ibora to'g'ridan to'g'ri “suv bilan ham ajrata olmayсан” deb tarjima qilinadi, ibora sifatida esa “o'ta yaqin do'stlar, ajralmas do'st” ma'nosini ifodalaydi.

Bu ibora eski rus xalqlari tomonidan paydo bo'lgan va o'sha davrda insonlar ikki narsani bir-biridan ajratish uchun ikkisi orasiga suv quyishgan, masalan loyni. Suv – hamma narsaga singib boradigan, har joydan o'tib ketadigan eng oson ajratuvchi vosita sifatida ko'rigan. Keyinchalik esa bu ibora metaforaga aylanib ketgan va insonlarga nisbatan ishlatilganda “suv ham ajrata olmaydigan yaqin do'stlar” ma'nosida mustahkamlanib qolgan.

O'zbek tilida esa bu ibora **“orasidan qil o'tmas”** deb tarjima qilinadi.

Легок на помине – bu ibora “eslagandan/ tez /oson paydo bo'ladi” deb tarjima qilinadi va odatda bir shaxs ustida suhbat ketayotganda tilga olingan shaxsning ko'rinish berishi yuzasidan ishlatiladi. Bu ibora odatda, kulgili va noformal kontekstda ishlatiladi.

Bu frazeologizm o'zbekchada **“bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinadi”** deb tarjima qilinadi.

Masalan; — Где Петя?

— Легок на помине, вот он идёт.

(Petya qayerda? Bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinadi – mana u kelmoqda.)

“Расхлёбывать кашу” — bu rus tilidagi ibora to'g'ridan to'g'ri “bo'tqani hal qilish” deb tarjima qilinadi.

Qadimgi ruslarda kasha (bo'tqa) juda muhim taom bo'lgan. Biror bemaza bo'tqa tayyorlab qo'yilsa, uni oxir-oqibat birov yoki bo'tqa pishirgan insonning o'zi “tozalab-hal qilib” yeyishi kerak bo'lgan. .

Bu ibora metaforaga olinib, hozirda o'zi yoki boshqalar qilib qo'ygan muammoni hal qilish, “qozonni tozalash”, oqibatini tortish kabi vaziyatlarda ishlatiladi.

O'zbek tilida esa bu iboraning muqobli sifatida **“o'zi pishirgan oshni yemoq/ o'zi pishirgan oshni aylanib ham, o'rgilib ham o'zi yemoq”** iboralari keltiriladi.

Misol; Ты сам женился на этой женщине, теперь сам будешь **расхлёбывать кашу** – bu ayolga o'zing uylanding, **endi o'zing pishirgan oshni o'zing yeysan.**

Делать муха слона - bu frazeologizm o'zbek tilida ham “pashshadan fil yasamoq” deb tarjima qilinadi.

Odatda kichik muammoni katta qilib ko'rsatadigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ya'ni pashshadek muammoni fildek ko'rsatuvchi, vahimachi yoki giperbolist insonlarga nisbatan.

Masalan; ты опять делаешь из мухи слона, все решается за пять минут – sen yana pashshadan fil yasayapsan, hammasi 5 minutda hal bo'ladi.

Как снег на голову – iborasi to'g'ridan to'g'ri “boshda qor paydo bo'lgandek” deb tarjima qilinadi.

Bu holatning obraz manbai; Rossiyaning qorga to'la, oqqa burkangan o'rmonlari. Ya'ni o'rmonda yurganda daraxt shoxlaridagi qor uyumi to'satdan boshga tushishi, “boshda paydo bo'lishi” mumkin. Bu ibora esa shu obrazdan kelib chiqqan hisoblanadi va to'satdan biror ish-harakat sodir bo'lganda qo'llaniladi.

O'zbek tilida esa, ushbu iboraga muqobil sifatida **“tomdan tarasha tushgandek”** iborasi ishlatiladi

Masalan; Он вошёл домой, **как снег на голову**, и лёг молча вместо того, чтобы говорить – u uyga **tomdan tarasha tushgandek** kirib keldi, va gapirish o'rniga, jimgina kirib joyiga yotdi.

O'zbek va rus frazeologizmlarini qiyosiy tahlil qilish frazeologik birliklarning til va madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Tadqiqot shuni aniqladiki, frazeologizmlar nafaqat tilning ifoda quvvatini oshiradi, balki xalqning kundalik hayoti, hududiy sharoiti va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi.

Turli mintaqalarda frazeologizmlarning paydo bo'lishi, bir xil ma'noga ega iboralar ham turli obraz manbalari orqali shakllanishi, frazeologiyadagi semantik va pragmatik xilma-xillikni yuzaga keltiradi. Shu bois, qiyosiy tahlil ikki til vakillari o'rtasidagi muloqotni yanada aniq va boy qiladi hamda tilshunoslikda frazeologik birliklarning milliy va universal jihatlarini o'rganishda muhim natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamurova, Sh. (2024). Iboralar, so'z birikmasi va frazeologik birliklar haqida umumiy tushuncha. Google Drive. <https://share.google/qb4zmEHWTihN2iIdo>
2. Narbotayeva, Sh. (2025). Iboralarning o'ziga xos xususiyatlari va tarjima jarayonidagi muammolar. Modern Science and Research, 4(4), 1089–1093. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/79679>
3. Radchenko, E. V. (2004). Russkaya frazeologiya i kultura rechi.
4. Rahmatullayev, Sh. (1978). O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.
5. Zhukov, V. P., & Zhukov, A. V. (2024). Russkaya frazeologiya: uchebnoe posobie.